

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MODAL FE'LLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI

Farg'ona Davlat Universiteti  
Ingliz tili kafedrası katta o'qituvchisi  
Nurmatova Munisxon Mashrabovna

Farg'ona Davlat Universiteti,  
Lingvistika, ingliz tili 2-kurs magistranti  
Raxmatullayeva Munajat Nozimjon qizi  
[raxmatullayevamunajat@gmail.com](mailto:raxmatullayevamunajat@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lingvokognitologiya sohasi, va uning modal fe'llar bilan bog'liqligi keng yoritiladi. Maqolada, modal fe'llar bilan lingvokognitiv jihatning birgalikda qo'llanilishi va buning gap ma'nosiga qanchalik ta'sir ko'rsatishi hamda modal fe'llarning o'ziga xos xususiyati misollar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada modal ma'nolarning turlari va o'ziga xos xususiyatlari ham aks etadi.

**Kalit so'zlar:** Modallik, modal ma'no, kognitivlik, ko'makchi fe'l, lingvokognitiv xususiyat, obyektivlik, subyektivlik.

**Abstract:** In this article, the field of linguocognitology and its connection with modal verbs are widely covered. In the article, the joint use of modal verbs and the linguocognitive aspect and how it affects the meaning of the sentence, as well as the specific characteristics of modal verbs, are explained on the basis of examples. Also, the article reflects the types and characteristics of modal meanings.

**Key words:** Modality, modal meaning, cognition, auxiliary verb, linguocognitive feature, objectivity, subjectivity.

Modal ma'no tilning dekorativ xususiyatlaridan biriga kiradi. Ushbu birlik tilimizda va kundalik nutqimizda ekspressivlik, intensivlik jarayonlarini kuchaytirishga ulkan hissa

qo'shadi. Boshqa grammatik birliklardan keskin farq qilib, modal ma'no o'zida tilshunoslikning qolgan barcha sohalarini: lingvokulturologiya, lingvokognitivlik, lingvopsixika, lingvostilistika, etimologiya kabilarni birlashtiradi. Ushbu ikki tilda: ingliz va o'zbek tillarida modal ma'nolarni muqoyasa qilishdan avval, kognitivlik va lingvokognitivlik tushunchalari haqida bilib olmog'imiz darkor.

O'zbek tili izohli lug'atiga ko'ra, "kognitiv" so'zi bu lotin tilidan olingan so'z bo'lib, *bilaman* yoki "*bilish*" degan ma'noni anglatadi.

Kognitiv tilshunoslik [til](#) va ong o'rtasidagi munosabatlar muammolarini, dunyoni kontseptuallashtirish va turkumlashtirishda tilning rolini, kognitiv jarayonlarda va inson tajribasini umumlashtirishda, insonning individual kognitiv qobiliyatlari bilan bog'liqligini va til va ularning o'zaro ta'siri shakllarini o'rganadigan [tilshunoslik](#) yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Umuman olganda, kognitivizm — bu fikrlash jarayonlarini boshqaradigan, umumiy tamoyillarni o'rganishni birlashtirgan fanlar majmuidir. Shunday qilib, [til](#) fikrlash jarayonlariga kirish vositasi sifatida taqdim etiladi. Insoniyat tajribasi, uning [tafakkuri](#) aynan tilda muqimdir; til — kognitiv mexanizm, ma'lumotni maxsus kodlashtiradigan va o'zgartiruvchi belgilar tizimi.

Xo'sh unda modal ma'no tilimizda qanday tushunchani ifodalaydi.

Gap har qanday fikrni ifodalash shaklidir. O'zbek va ingliz tillarida modallik esa gapning asosiy belgisi bo'lib, gap mazmunining eng muhim qismidir. Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati va so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan munosabati tushuniladi. Modallik ostida gapning subyekt bilan bog'liq bo'lgan turli ma'nolari tushunilar ekan, avvalo, bu ma'nolarni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- 1) Obyektiv;
- 2) Subyektiv.

Obyektiv modallik bilim akti yo'naltirilgan ma'lum bir vaziyatdagi mavjud obyektiv aloqador xarakterini aks ettiradi (mumkinlik, haqiqiy, zaruriylik).

Subyektiv modallik esa bu aloqalarni bilish darajasiga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi.

Obyektiv modallik gapning semantik bo‘linish sathida o‘z ifodasini topadi. Uning shakliy ko‘rsatkichlari:

- 1) fe‘l mayllari (shart – istak, buyruq, shartli, ijro) va boshqalar;
- 2) maxsus modal fe‘llar: xohlamoq, istamoq va boshqalar;
- 3) leksik vositalar: kerak, lozim, darkor, majbur, zarur va boshqalar;

Obyektiv modallik, o‘z navbatida, turli ma‘nolarni o‘z ichiga oladi:

1. Gapda ifodalangan mazmunning borliqqa munosabati. Bu fe‘l mayllari va ohang (nominativ so‘z - gaplarda) orqali ifodalanadi hamda gap mazmunini real (normal) ekanini farqlaydi.

2. Subyektning «o‘z» harakatiga munosabati.

Bu modallik to‘rt kichik kategoriyani birlashtiradi:

a) aniqlik. Nol ko‘rsatkich bilan xarakterlanadi; (ingliz tilida ham o‘zbek tilida ham).

- men o‘qituvchi va tilshunos olimman.

- I am a teacher and linguo-scientist.

b) mumkinlik, imkoniyati borlik. O‘zbek tilida ushbu ma‘no *olmoq, bo‘lmoq* ko‘makchi fe‘llari orqali ifodalanadi.

Masalan: *Hammasi azalda bitilgan bo‘ladi, – deb gapini boshladi otam. Shuning uchun ham ichingdagi o‘sha qora kuchning yuqi bilan kunda kurashmog‘ing lozim bo‘ladi, bolam.* (U.Hamdam “Yo‘l”).

*Ma‘no esa tezdagina o‘z manziliga yetib oladi...* (U.Hamdam “Yo‘l”).

Ingliz tilida esa ushbu hodisa birozgina boshqacha, ya‘ni alohida modal fe‘llar bilan talqin qilinadi.

Mumkinlik, imkoniyati borlik – ushbu ma‘nolarni ifodalash uchun ingliz tilida alohida modal fe‘llar bo‘lib, ular quyidagilar:

Can, could – qila olmoq, biror bir narsaga imkoniyati borlik konseptini ifodalash uchun asosiy modal fe‘llar.

To be able to – yuqorida izohi keltirilgan can, couldning ekvivalenti.

*Can I take your pen?*

*Ruchkangizni olsam bo‘ladimi?*

*He can speak English.*

*U ingliz tilida gaplasha oladi.*

v) zarurlik, darkorlik, majburlik. Modallikning bu ma'nosi o'zbek tilida *kerak, lozim, darkor, zarur* singari so'zlar orqali ifodalanadi.

Masalan: *Barchasini, borini oxirgi tomchisigacha bilishim kerak! – deya hayqirardim ba'zan unga, ko'pincha esa o'zimga o'zim.* (U.Hamdami "Yo'l").

*Iymonning namoyon bo'lishi uchun kufr kerak! – Bu gaplarni tashrifchilarning yoshi ulug'rog'i aytardi.* (U.Hamdami "Yo'l").

Ingliz tilida ham zarurlik ma'nosini ifodalash uchun bir qancha so'zlar mavjud bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi va har birini o'ziga xos ma'nosi va xususiyati, shuning bilan birga o'z darajasi mavjud.

Must – o'ta zaruriyatni, shartlikni ifodalaydi.

*I must learn English.*

*Men ingliz tilini o'rganishim shart.*

Have to – must dan keyingi o'rinda, zaruriyatni ifodalaydi.

*I have to wear this uniform for my school.*

*Men maktabim uchun ushbu formani kiyishimga to'g'ri keladi.*

Should – maslahat ma'nosida kerak, zarur degani.

*You shouldn't be late.*

*Siz kech qolmasligingiz kerak.*

*I think you should buy some cheaper clothes.*

*O'ylashimcha, siz sal arzonroq kiyimlar sotib olishingiz kerak.*

g) xohish – istak. Bu ma'no maxsus modal fe'llar (hohlamoq, istamoq va boshqalar) orqali ifodalanadi.

Masalan: *Lekin nima qilayinki, navqiron edim va mening yoshgina jonim jo'shqin bahrlarga sho'ng'ishni istardi.* (U.Hamdami "Yo'l").

Ushbu ma'noni ingliz tilida will yoki shall modal fe'li hozirgi zamonini, would esa o'tgan zamonini ifodalaydi.

*I will go to America one day.*

*Men bir kun Amerikaga boraman.*

*I would study in foreign countries, when I was young.*

*Navqiron paytim Amerikada o'qishni xohlardim.*

Garchi modal fe'llar turkumiga kirmasa-da, **to be going to** leksik birligi ham modal fe'llik ma'nosini beradi va xohish-istakni bildiradi.

*I am going to be an artist.*

*Men rassom bo'lmoqchiman.*

Yuqorida sanab o'tilgan barcha modallik turlari obyektiv modallikka mansub bo'lib, diktunga oiddir. Subyektiv modallik gapda ifodalangan obyektiv mazmunga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi va modalga kiradi. Subyektiv modallik kirish so'z vazifasida kelgan maxsus modal so'z yoki modal vazifadagi boshqa so'zlar yordamida ifodalanadi. Subyektiv modallik orqali, o'z navbatida, so'zlovchining o'z fikriga turli munosabatlari namoyon bo'ladi:

*ishonch (Ana, tarixni titib ko'r, din va ilmdan qaysi biri yuksalgan bo'lsa, ikkinchisi albatta cho'kkan).*

Ingliz tilida bu modal ma'noni must so'zi ifodalaydi.

*He must come soon. He is never late.*

*U tez orada kelishi kerak. U hechqachon kechikmaydi.*

**tasdiq** (*To'g'ri, o'shanda ham botinimga quloq tutsam, umumiy manzara ahvolidan menga xabar kelar edi*).

*gumon (Ehtimol, men ham boshqa rastaga butunlay o'tib ketardim).*

Ingliz tilida ushbu ma'no may modal fe'li orqali ifodalanadi.

*He may be a thief, because some years ago he was arrested.*

*U o'g'ri bo'lishi ehtimoldan yiroq emas, chunki u bir necha yillar avval qamalgan.*

*achinish (Afsus, ularning dastidan bir kosa yovg'on oshni ham ming bir zahmat bilan yer edim) va boshqalar.*

Subyektiv modallik fakultativ xarakterga egadir. Shunday qilib, modallik gapdagi roli va subyektning gap mazmunidagi munosabat darajasiga qarab, ikki guruhga – obyektiv va subyektiv modallikka bo'linadi. Obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri hisoblansa, subyektiv modallik ustiga qo'yiluvchi qo'shimcha modallikdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yarashova N. J. The lights of jewels of turkic language in the works of Alisher Navoi //Theoretical & Applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука.–2021. – 2021. – Т. 9. – С. 659-661.
2. Jumayevna Y. N. Linguo culture logical features of metaphors in children's literature (On the example of khudayberdi tokhtabayev's creative work) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2019. – Т. 9. – №. 4. – С. 139-145.
3. Jumaevna Y. N. Occupation of the child's personal mental status in dialogual speech //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 5. – С. 405-408.
4. Jumaevna N. Y. Development of linguocreative abilities in children's speech //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 3. – С. 5-8.
5. Norboyevna Y. R. Structural-semantic, national-cultural features of words in uzbek language //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 5. – С. 409-414.